

**MUSTAQILLIK YILLARIDA TURKIYANING TA'LIM TIZIMINI
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MA'LUM BIR YANGILIKLARINI
JORIY QILINISHI VA HAMKORLIK .**

Nurmuhhammadova Mohina Habibullo qizi

Namangan davlat unversiteti

Tarix yo'nalishi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda va Turkiya ta'larning rivojlanishi haqida so'z yuritilib, ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va sifatni oshirish borasida erishilgan yutuqlar haqida so'z boradi. Hukumat tomonidan a ta'lim muassasalarida yangi milliy o'quv dasturlarini joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish va o'zaro ikki davlatning ta'lim borasidagi kelishuvlari muhokama qilinmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim, O'zbekiston, taraqqiyot, mustaqillik, foydalanish imkoniyati, sifat, o'quv dasturi, o'qituvchilar malakasini oshirish, hamkorlik, turkiya, muammolar.

O'zbekiston yoshlar davlatidir. Umumiyligi aholining taxminan 60% ni 25 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlar tashkil qiladi. Bolalarga mehr-muhabbat, ularning salomatligi, farovonligi va ta'lim-tarbiyasi haqida qayg'urish

O'zbekistonning qadimiy merosi-bu uning adabiy meroslari ekanligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Turkiya va boshqa rivojlangan davlatlar aynan O'zbekistonning adabiy meoslaridan keng foydalanib kelishadi va o'zlarining ta'lim tizimiga joriy qilishmoqda aynan bizning ota-bobolarimiz yaratgan asarlarning negizlari bugungi kunda dunyoga mashxur. Bolalar va yoshlar tarbiyasi mamlakatimiz davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu bois 1992-yil iyun oyida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi yosh suveren davlatimizda ta'lim sohasidagi ilk islohotlardan biri bo'ldi. O'zbekistonda ta'lim

sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati ta'lif tizimining mavjud intellektual salohiyatini saqlab qolish, demokratik fuqarolik jamiyati va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida har tomonlama rivojlangan, yetuk shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shunday ekan, ham jismonan, ham ma'nani sog'lom avlodni voyaga yetkazish asosiy maqsadlarimizdandir.

Bizning yangi ta'lif siyosatimizning asosiy tamoyillari bu boradagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ayni paytda mamlakatimizning barcha ijtimoiy faolligi va rivojlanish istiqbollarini o'zgartirish jarayonida darsliklar yangilanmoqda, yangi fanlar qo'shilmoqda, professor-o'qituvchilar tarkibini qayta tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Yangi davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqish yanada takomillashmoqda. Ko'p sonli yangi turdag'i maktablar, bog'chalar yaratilmoqda. Shu bilan birga, bolalar bog'chasi, umumta'lif maktabi, ilmiy-ta'lif muassasalarini o'z ichiga olgan o'quv majmuasini davom ettirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Turkiya Respublikasi prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'an va O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi muzokaralarda erishilgan kelishuvlarga muvofiq, Turkiya oliy ta'lif bo'yicha kengashi (YÖK) raisi Yyekta Sarach boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonning ikkita ta'lif muassasasi infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ish boshladi. Bu haqda «Anadolu» xabar bermoqda.

Gap Samarqanddagi Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro tadqiqot markazi va Toshkentdagi Islom tadqiqotlari markazi haqida bormoqda.

Turkiya Respublikasi prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'an kuni kecha O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev bilan bo'lib o'tgan qo'shma matbuot anjumanida, «turkiy va islom sivilizatsiyasining ikki qadimiy o'chog'i madaniy yaqinlashuvi» ahamiyati katta ekanini aytgandi.

«Ikki mamlakat idoralari rahbarlariga ikki tomonlama hamkorlikni maksimal darajada rivojlantirish haqida ko'rsatma berildi. O'zbekiston tomoni Anqara kabi

yaqinlashishga intilayotganini ko'rishdan juda baxtiyorman. Imom Buxoriy va Imom Maturidiy institutlari faoliyatiga umid qilamiz», - degan Erdo'g'an.

Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidov Turkiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar bilan uchrashdi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Matbuot xizmati rasmiy veb-sayti ma'lum qildi.

Ushbu ma'lumotga ko'ra uchrashuv chog'ida ikki mamlakatlarning ta'lim tizimlari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik yo'nalishlari muhokama etilgan.

Tomonlar ikki davlat o'rtasidagi bugungi strategik hamkorlikka qo'shimcha ravishda ta'lim sohasidagi aloqalarni ham yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatlari haqida fikr almashgan.

Uchrashuv chog'ida o'zbekistonlik o'quvchilarga Turkiyaning yetakchi Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi uchun grant ajratish, vazirliklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Turkiya maorif vazirining O'zbekistonga ishchi tashrifi rejalshtirilayotganligi qayd etilgan.

Xalq ta'limi vaziri ikki davlat o'rtasidagi ta'lim sohasiga oid hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilib olish uchun turkiyalik hamkasbi bilan uchrashuvga tayyorligini ma'lum qilgan.

Bolalarga yo'naltirilgan ta'lim – O'zbekiston ta'lim tizimidagi yangi yondashuv. Shu ma'noda bugungi kunda maktab ta'lim muassasasida bolalarga qanday o'rganish bo'yicha o'zлari tanlash imkoniyati yaratilmoqda. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi maktab ta'lim strategik boshqarmasi bosh mutaxassisni Irina Groshevaning aytishicha, "**Avval qo'llanilgan modelda tarbiyachi eng muhim asosiy shaxs edi. Hozir esa asosiy rolni bola o'ynaydi. bola o'z faoliyatini tanlash huquqiga ega**". Uning aytishicha, hozir O'zbekistonda maqsad bolalarda analitik fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda va Turkiya ta'lim sohasidagi hamkorliklar maktab ta'lim tizimini rivojlantirish natijasida aholining foydalanish imkoniyatlarini oshirish va sifatni oshirish borasida

sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, barcha bolalar maktab ta'lif muassasalarida sifatli ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash uchun hali ham hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Pedagog kadrlar tayyorlashga sarmoya kiritishni davom ettirish, qishloq joylarda maktabgacha ta'lif muassasalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bog'cha uchun to'lov narxlardagi muammolarni hal qilish orqali O'zbekiston maktabgacha ta'lif tizimini yanada mustahkamlashi va ta'lifni eng yuksak natijalarga olib chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi. (2021). Biz haqimizda. <http://moliya.uz/uz>
2. Osiyo taraqqiyot banki. (2020). O'zbekiston: O'zbekiston uchun ta'lif sohasini baholash. <https://www.adb.org/publications/education-sectorassessment-uzbekistan>
3. YUNESKO. (2019). O'zbekistonda erta yoshdag'i bolalarni tarbiyalash va tarbiyalash.<https://www.etf.europa.eu/en/publicationsand-resources/publications/early-childhood-care-and-education-uzbekistan>
4. Karimov I.A. Asarlar. T.1-24.-Toshkent: "O'zbekiston", 1996-2016.
5. Karimov I.A. Istiqlol yo'li" muammolar va rejalar. – Toshkent: "O'zbekiston" 1992.- 32 bet.
- 6 . Karimov I.A. Vatan ozodligi- oliy saodat (o'zbek, ingliz, rus tili). – Toshkent: "O'zbekiston", 1999.-64 bet.